

TEMPERAMENT VA XARAKTERNING KASBIY FAOLIYATDAGI ASOSIY AHAMIYATI

Xasanov Eldor Elmurodovich
Andijon shahar 14014 harbiy qism
“Tarbiyaviy va ma’fkuraviy ishlar” bo‘limi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lg‘usi kadrlarning kasb tanlashdagi muammolari, xarakter xususiyatlari kasbiy shakllanish jarayoni bilan bog‘liq tomonlari nazariy va amali jihatdan tahlil etilgan va xulosalar berilgan. Xarakterning o‘ziga hosligi kasb tanlashda temperament va uning ahamiyati yoritilgan. Bu esa o‘z navbatida bo‘lg‘usi kadrlarning kasb tanlashdagi muomolariga yechim bo‘la oladi.*

Kalit so‘zlar: *Xarakter, kasb tanlash, yosh kadrlar, aksentuatsiya, temperament, sangvinik, flegmatik, melanxolik, xolirik.*

Bo‘g‘usi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash kasb-hunar ta’lim oldiga qo‘yilayotgan talablarga mutanosib inson qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo‘lib hisoblanadi. Shunday ekan bo‘lg‘usi kadrlar kasb tanlashda xarakterning ahamiyati beqiyos sanaladi. Chunki xarakter insoning bir manoda aytganda borlig‘i sanaladi ya’ni uning yashash tarzi insonlar bilan o‘zaro muomilaga kirish jarayonlari bularning barchasi uning xarakteridir.

Ma’lumki har biro dam o‘zining individual xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hayotda bunday farqlar kishining xakteri bilan bog‘liq deb tushuntiriladi. “Xarakter”- grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, aynan tarjima qilinganda “bosilgan tamg‘a”, ‘muhr’ ma’nosini anglatadi. Psixologiyada xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullaaridanommoyon bo‘ladigan, tipik sharoitlarda yuzaga chiqadigan va shaxsning bu sharoitlariga munosabti bilan belgilanadigan individual psixik xususiyatlar yig‘indisi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, xarakterning har bir xislati tegishli tipik sharoitlardagina nomoyon bo‘ladi. Shu sababli insonlar o‘z-o‘zini turli sharoitlarda turlicha tutishi mumkin. Ishda qurqoq, ikilanuvchan, uyda chaqqon, dilkash, g‘ayratli, odamlar orasida vamin o‘yichang va hokazo. Bir narsani unitmasligimiz keraki xarakter tug‘ma bo‘lmaydi.

Xarakterning u yoki bu xususiyati midoriy ifodaliligi oxirgi marraga etib va norma chegarasiga borib qolganda xarakterning aksentuatsiya – “ortiqcha urg‘u berilishi” deb ataladigan vaziyat paydo bo‘ladi. Xarakterning ortiqcha urg‘u berish – ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi chegarasidir. Bu esa o‘z navbatida kasbdagi muomolarga sabab bo‘ladi. Chunki tez asabiylashadigan jizaki o‘zini nazorat qila olmaydigan insonlarning o‘zaro kasb faoliyati insonlar bilan bog‘liq bo‘lsa u holda kasbiy faoliyatda ham hayot faoliyatida ham judayam ko‘p tuqnashish va muomolarga duch keladi.

Huddi temperament kabi xarakter ham kishining fiziologik xususiyatlariga, xarakterining ko‘rinishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ularning paydo bo‘lishi va kechishining dinamik xususiyatlarini belgilab beradi.

Inson xakteri o‘zgacha va bir manoda aytganda betakror tilsimdir chunki inson xarakterida irodaviy sifatlar mavjud. Ular:

1. Aktivlik - qatiyatlilik, jasurlik, mustaqillik, tashabbuskorlik.
2. Yig‘inchog‘lig - o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘ziga ishonchi komilligi, intizomlilik
3. Pasivlik – ikkilanuvchanlik, qurquv, insonlardan o‘zini olib qochish va hokazo.

Ushbu xarakterning sifatleri insonlarni ma’lum kasb tanlashda

Temperament – odamning individual xatti-harakatlarini ifodalab turuvchi tug‘ma va turg‘un psixofizologik xususiyatlar yig‘indisi. Temperament tug‘ma va o‘zgarmasdir. Inson qanday temperamentga ega bo‘lsa, umrbod o‘sha temperament qoladi. Temperament tafakkur darajasi yoki insoniylik fazilatlariga qarab ham bo‘linmaydi. Shu bois ham barcha temperament vakillari ichida iqtidorli va iqtidoriz, ilmi va ilimsiz, vijdonli va vijdonsiz kishilarni uchratish mumkin. I.P.Pavlovning odamlar va oliy sutemizuvchilar uchun umumiy bo‘lgan asab tizimining turlari to‘g‘risidagi bir fikirni olg‘a suradi. “Temperament bu insoning insonlar bilan munosabatga kirishishidagi eng ajralmas nuqtasidir. Nima uchun uylib kuraylik temperament insoning insonlar bilan muloqatga kirishishida ajralmas nuqtasi bo‘ladi chunki temperament bu inoning o‘zi uning xakteri hayot faoliyatidir. Shundal kelib chiqib temperament tiplarini turmish psixologiyasi nuqtai nazaridan shunday xarakterlash mumkin:

Sangvinik – quvnoq, chaqqon, tirishqoq va ta’sirchan odam. U tevarak-atrofga tez moslashadi, voqea-hodisalarga reaksiyasi kuchi bo‘ladi. Odatda, sangvinik gapdon odam, har qanday inson bilan muloqatga oson kirishib ketadi va suhbat paytida quvnoq mimikni ko‘p ishga soladi.

Flegmatik – vazmin, bosiq, kamharakat va hissiyotini jilovlab tura oladigan odam. Flegmatik odatda kamgap bo‘lib, har qanday ishni shoshmasdan boshlaydi, biroq oxiriga etkazib qo‘yadi, murakkab yoi janjalli vaziyatlarda ortiqcha hissiyotga berilmaydi.

Xolerik – jizzki, qiziqqon, chaqqon, beqaror, hissiy reaksiyaga boy odam. U juda harakatchan. Juda katta ish qobiliyatiga ega biror ishni qiziqib tez boshlaydi-yu, oxiriga etkazmay tez orada tashab qo‘yadi.

Melanxolik – g‘amgin, zaif, yig‘loqi va juratsiz odam. U salga xafa bo‘ladi, jiddiyroq ishlarg jurat etolmaydi, o‘z fikriga ega emas. Aynan shu temperament va xakterdan kelib chiqib yosh kadrlarimizni yo‘naltirish ish faoliyatida bir qancha yutuqlarni egallashga kattakon qo‘l keladi desam yangilishmagan bo‘laman.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki temperament bu biz tan olamizmi yoki yo‘qmi bu bizning aslimiz uni o‘zgartirib bo‘lmaydi shunday ekan kasb tanlashda fikrimcha eng muhimi yosh intiluvchan kadirning xakter va qiziqishlaridan kelib chiqib kasb tanlash uning ertangi porloq kelajagi uchun eng ishonchli kafolat bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Tibbiyot psixologiyasi. 3-nashr. T-2019
2. Umumiy psixologiya. G‘oziev E.G. T-2002
3. I.P.Pavlov 1998